

RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN MUHITINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ERTA RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

*Namangan davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim
kafedrası katta o'qituvchisi.*

nilufarismoilova@gmail.com (998)99-975-97-07

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o'yin muhiti va uning ahamiyati, maktabgacha turli yoshdagi bolalarni erta rivojlantirishda o'yin faoliyatining ta'siri, shuningdek bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida rivojlantiruvchi o'yin muhitiga zamonaviy yondashuvlar aks ettirilgan. Rivojlantiruvchi o'yin muhiti - bu pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, makon va vaqtda oqilona tashkil etilgan, turli xil vositalar va o'yin materiallari bilan to'ldirilgan estetik, psixologik va pedagogik shart-sharoitlar majmuasi bo'lib, bolada intellektual va shaxsiy fazilatlarni singdirish uchun qulay jarayon ekanligi amaliy metodlar orqali yoritilgan. Maqola yakunida rivojlantiruvchi o'yin muhiti - turli xil hissiy stimullar va o'yin materiallari bilan to'ldirilgan tabiiy, qulay, oqilona tashkil etilgan muhit ekanligi, bunday sharoitda guruhdagi barcha bolalar bir vaqtning o'zida faol kognitiv va ijodiy faoliyatda ishtirok etishlari tufayli kutiladigan natijalar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar; maktabgacha ta'lim va tarbiya, rivojlantiruvchi o'yin muhiti, o'ynashga bo'lgan huquq, bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, mustaqil o'yin faoliyati, pedagogik jarayon, pedagogik va psixologik shart- sharoitlar, intellektual qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar.

"РОЛЬ РАЗВИВАЮЩЕЙ ИГРОВОЙ СРЕДЫ В РАННЕМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА"

Исмаилова Нилуфар Исроилджановна

*Наманганский государственный педагогический институт, старший
преподаватель кафедры дошкольного образования.*

nilufarismoilova@gmail.com

Аннотация. В данной статье представлена развивающая игровая среда и ее значение в организациях дошкольного образования, влияние игровой деятельности на раннее развитие детей дошкольного возраста, а также современные подходы к развивающей игровой среде в процессе обучения и воспитания детей. Развивающая игровая среда представляет собой комплекс эстетических, психолого-педагогических условий, необходимых для осуществления педагогического процесса, разумно организованных в пространстве и времени, наполненных различными инструментами и игровыми материалами, и освещаемых практическими методами, способствующих усвоению интеллектуальных и личностных качеств у ребенка. В конце статьи понятно, что развивающая игровая среда – это естественная,

комфортная, рационально организованная среда, наполненная различными эмоциональными стимулами и игровым материалом, в которой от всех детей в группе ожидается одновременное участие в активной познавательной и творческой деятельности

Ключевые слова; дошкольное образование и воспитание, развивающая игровая среда, право на игру, ориентированный на ребенка подход, самостоятельная игровая деятельность, педагогический процесс, педагогические и психологические условия, интеллектуальные способности, личностные качества.

"THE ROLE OF THE DEVELOPING PLAY ENVIRONMENT IN THE EARLY DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN"

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

*Namangan State Pedagogical Institute,
senior teacher of the department of preschool education.*

nilufarismoilova@gmail.com

Abstract: *This article presents the developmental play environment and its importance in preschool education organizations, the impact of play activities on the early development of preschool children, as well as modern approaches to the developmental play environment in the process of teaching and raising children. The developmental play environment is a set of aesthetic, psychological and pedagogical conditions necessary for the implementation of the pedagogical process, reasonably organized in space and time, filled with various tools and game materials, and illuminated by practical methods that contribute to the assimilation of intellectual and personal qualities in the child. At the end of the article, it is clear that the developmental play environment is a natural, comfortable, rationally organized environment filled with various emotional stimuli and play material, in which all children in the group are expected to simultaneously participate in active cognitive and creative activities.*

Keywords; *preschool education and upbringing, developing play environment, the right to play, a child-centered approach, independent play activity, pedagogical process, pedagogical and psychological conditions, intellectual abilities, personal qualities.*

KIRISH

Maktabgacha yosh davomida bolalar jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional jihatdan tez rivojlanadilar, o'yin, o'qitish va turli faoliyatlar jarayonida o'z dunyoqarashini shakllantiradilar, nutq, motorika va ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradilar. Bu davr bolalar uchun ta'lim, o'rganish va o'zini anglashning muhim bosqichidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetik, estetik va jismoniy jihatdan

rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.

2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini (BRM) belgiladi. BRMning 4.2-bandiga muvofiq, barcha qiz va o'g'il bolalarning erta bolalikda sifatli rivojlanishi, parvarish va maktabgacha ta'limga ega bo'lishi hamda boshlang'ich maktabga tayyorlanishi maqsadi qo'yildi. Bu bolalarni erta rivojlantirish bo'yicha ilk global maqsadlardan biri bo'ldi. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida erta rivojlantirish dasturlari bilan pedagoglar qay darajada tanish, ta'lim-tarbiya jarayonining samarali bo'lishida pedagoglar zamonaviy texnologiyalar, metod va usullar bilan nechog'lik tanish?

R. Kempl;- "Bolani ko'zguga o'xshatish mumkin. U muhabbatni tarqatmaydi, balki uni aks ettiradi. Agar bolaga muhabbat bersangiz, u uni qaytaradi. Agar hech narsa bermasangiz, hech narsa qaytarib olmaymiz" degan edi.[1] Biz hozir bolaning ruhiga nimalarni singdirsak, bu keyinchalik uning va bizning hayotimizda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda biz bolaga nimalar beryapmizu, nimalarni berilishi kerak bo'lganida vaqtida bermayapmiz?

V.A. Suxomlinskiy: "Bolalik yillari – bu avvalo yurakni tarbiyalashdir" degan edi. Maktabgacha yosh bolalar uchun – bu bilim olish, muloqot qilish, o'zini ko'rsatish uchun bir necha qiziqarli faoliyat bo'lsa, kattalar uchun – bola shaxsini o'rganish, o'zini va o'z mahoratini sinash, mas'uliyat va jajjilarga bo'lgan muhabbatni his qilish uchun butun bir hayot. Aslida amalda bola qalbiga quloq solyapmizmi, kattalarning ular bilan jonli muloqoti qanday? Bu mas'uliyatli vazifani jonsiz telefonu gatjetlarga berib qo'ymayabmizmi?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi o'yin muhiti nazariyasi, o'yin jarayonida bolalarda intellektual va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish tamoyillari, o'yin orqali bolalarni o'qitish va rivojlantirish usullari, pedagoglarga maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyatini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar, bolalarga to'laqonli intellektual va shaxsiy rivojlanishi uchun qoidalari bor syujetli-rolli, didaktik va harakatli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar hamda o'yinchoqlardan va

ularning o'rnini bosuvchi predmetlardan foydalaniladigan o'yinlarni o'ynashda zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish ko'zda tutilgan.

"Rivojlantiruvchi o'yin muhiti" – bu bolalar uchun o'ynash, o'rganish va rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan, estetik, psixologik va pedagogik jihatlarni o'z ichiga olgan, o'ynash uchun zarur bo'lgan vositalar va materiallar bilan to'ldirilgan muhitdir. Bu muhit bolalarning intellektual va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. U pedagogik jarayonni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratadi va bolalarga o'z qobiliyatlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkonini beradi.[4] Demak, rivojlantiruvchi o'yin muhiti bolaning har tomonlama rivojlanishining asosiy omili ekan.

Boshqacha qilib aytganda, rivojlantiruvchi o'yin muhiti – bu bolalarning o'quv faoliyatini rag'batlantiruvchi, qiziqarli va foydali bo'lgan, o'yin orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun barcha kerakli shartlarni ta'minlaydigan muhitdir.

Shuningdek, rivojlantiruvchi o'yin muhiti deganda biz oqilona tashkil etilgan, turli xil ob'ektlar va o'yin materiallari bilan to'yingan va estetik jihatdan bezatilgan tabiiy qulay muhitni tushunamiz. Bunday muhitda guruhdagi barcha bolalarni bir vaqtning o'zida ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda turli xil tadbirlarga jalb qilish mumkin. Puxta tashkil etilgan rivojlantiruvchi o'yin muhiti o'ziga bo'lgan ishonchni namoyon etish, maktabgacha yoshdagi bolaga o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish va ishlatish imkoniyatini beradi, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi sifatlarning namoyon bo'lishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish muhitini yaratishning ajralmas sharti bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro aloqaning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga tayanishdir, deb hisoblaymiz.

"Rivojlanish muxiti – bu bolaning ma'naviy va jismoniy qiyofasini rivojlantirish mazmunini funksional ravishda zamonaviylashtiruvchi moddiy obyektlar tizimidir. Rivojlanishning boyitilgan muhiti bolaning turli faoliyatlarini ta'minlaydigan tabiiy va ijtimoiy vositalarning yaxlitligini nazarda tutadi" [5]. Bu holda «ob'ektiv muhit» tushunchasi tor ma'noda, ya'ni mebel buyumlari, kundalik

hayot, o'yinchoqlar bilan to'ldirilgan ekologik makon sifatida namoyon bo'ladi, ular orasida yashayotgan bola kattalar yordamida atrofdagi dunyoni o'zlashtiradi.

O'yin rivojlanishning yetakchi manbai sifatida erta rivojlanish uchun juda muhimdir. Bu BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining 31-moddasida ham belgilangandir.[3] Unda aytilishicha, bolalar yoshiga mos o'yinlarda ishtirok etish huquqiga ega. Bolalar o'yin kompetensiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materiallar hamda ota-ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo'llab-quvvatlashi kerak. O'yin alohida bolalar uchun ta'limda muvozanatni saqlashga yordam beradi, chunki bola o'z ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan darajada va jadallik bilan olib boradi. U har bir bolaning rivojlanish ehtiyojlari va manfaatlarini gayrioddiy tarzda inobatga oladi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)da ta'lim faoliyatini tashkil etishning eng muhim tamoyili – o'yin orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishdir. [5] O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim va yetakchi shakli sifatida keng va atroflicha yoritilgan. O'yin tamoyillaridan kelib chiqib bola o'z xohishiga ko'ra birlashadi, mustaqil harakatlanadi, o'z g'oya va istaklarini amalga oshiradi, dunyoni anglaydi. Mustaqil o'yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, axloqiy-irodaviy fazilatlarining shakllanishi, ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi.

Bolalarining o'yin faoliyatini rivojlantirish sohasidagi aks etgan fikr-mulohazalar, olimlar o'rganishlari (L.S. Vygotskiy, M.Y. Zaikin, P.P. Blonskiy, E.A. Arkin, A.V. Zaporozets, D.B. Elkonin, N.Y. Mixaylenko, , A.N. Leontiev, A.P. Usova) asosida mulohaza yuritilgan, shart-sharoitlar mos xolda yaratilmoqda. Ular o'yinni ilk va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvida eng muhim va samarali shakl sifatida o'rganishgan.[6]

L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, maktabgacha yosh davrida o'yin va mashg'ulot, o'yin va mehnat bolalarning faoliyati davom etadigan ikkita asosiy kanalni tashkil qiladi.[7] Pedagoglar MTTda o'yin faoliyatini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalarni bajarayotib, bolalarga to'laqonli intellektual va shaxsiy rivojlanishi uchun qoidalari bor syujetli-rolli, didaktik va harakatli o'yinlar,

sahnalashtirilgan o'yinlar hamda o'yinchoqlardan va ularning o'rnini bosuvchi predmetlardan foydalaniladigan o'yinlarni o'ynashda zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni egallashga ko'maklashadi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Demak taxlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshidagi bolalarning eng asosiy faoliyatlari o'yindir. Asosiy faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez-tez ko'zga tashlanib turadigan xatti-harakatlariga aytamiz. Asosiy faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, maktabgacha yoshidagi bolalarni o'yindan boshqa kamolotga yetkazuvchi biror boshqa faoliyat turini tasavvur etish qiyin. O'yin bolalar uchun ular organizmining tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Bolalarning o'yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga, hayotiy urf-odatlariga maxsus ravishda taqlid qilishdan iborat bo'ladi. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda o'sishlari uchun birdan-bir vositadir. Bola o'yinda qanday bo'lsa, katta bo'lganida ishda ham ko'p jihatdan shunday bo'ladi. Bu borada "O'yinda buyruq bilan bajarishga yoki bo'ysunib organgan bola haqiqiy hayotda bu yo'nalishdan chiqib ketishi anchayin qiyin bo'ladi" deya qayg'urgan K.D.Ushinskiyning qarashlarini hamisha yodda tutishimiz zarur, u bolalar o'yinidagi mustaqilligiga o'ziga xos xususiyat sifatida qarab "Oyin shuning uchun ham o'yinki, u bola uchun mustaqil mashg'ulotdir." Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, undan ortiq emas, u xech qanaqa mustaqillikka ega bo'lmagan norasida, hayot oqimida ko'r-ko'rona va betashvish suzayotgan go'dak; o'yinda esa bola boshqacha odam, u endi kamol topayotgan, u endi o'z kuchini sinab ko'ra oladigan va o'zi yaratgan narsasini mustaqil idora eta oladigan inson" deya ta'kidlagan. Kelajak 3-Renesans yoshlar qo'lida ekan, bugun bolalar o'yinidagi munosib sheriklik, aqlli qo'l-aqlli miya taomilini unutmasligimiz shart.

Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik bilan bog'liqdir. Lekin o'yin ham kerakli vaqtda, kerakli joyda va kerakli dozada bo'lsagina emotsional ta'siri kuchli bo'ladi. O'yinning kelib chiqishi haqida birinchi bor G.V.Plexanov "Adressiz xatlar" asarida "O'yin mehnatning farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo'lgan

xodisadir” deb yozgan. O’yinda kattalar faoliyatiga taqlid, yani, o’g’il otaga, qiz onaga taqlidan harakat qiladi. “....turli avlodlarni bog’laydigan va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatuvchi zanjir bo’lib xizmat qiladigan “aloqa vositasi” deb xisoblagan edi. Darhaqiqat bolalar o’yinida oila muhiti, yaqinlarining o’zaro munosabati, turmush tarzi aks etadi, taqlid qilinadi, o’sha qiyofa gavdalantiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o’yin muhiti tarkibini quyidagilar tashkil etadi:

1. O’yin joyi (zonasi) – loyiha asosida tashkil etilgan rivojlanish markazlarining har biri uchun alohida joy ajratilgan bo’lib, bunday chegaralanish har bir markazning chegaralarini aniq belgilaydi, bir vaqtning o’zida markazdan foydalanadigan bolalar sonini cheklaydi, xona bo’ylab harakatlanishning xavfsiz yo’llarini ko’rsatadi.
2. O’yin anjomlari – bolalar foydalanishlari uchun har bir rivojlanish markazi uchun alohida o’yin anjomlari tanlab olinadi. O’yin anjomlarini tanlashda bolalarning yoshi, psixologik va fiziologik hususiyatlari inobatga olinadi.
3. O’yinchoqlar – bola hayotining daslabki davrlaridan boshlab ularga yo’ldosh quvonch manbaidir. O’yinchoq bolaning o’ynashi uchun mo’ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi. Pedagog A.S.Makarenko: «O’yinchoq o’yinning «material asosi», o’yinchoq o’yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o’ziga xos sherigi sifatida namoyon bo’ladi, uning shaxsiga ta’sir ko’rsatadi», — deb ta’kidlagan edi. Pedagoglar o’yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o’rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar o’lchamini, ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi muhim vosita deb ta’kidlaydilar.

O’yin materiallari. Rivojlantiruvchi o’yin muhiti har bir faoliyat turiga mos ravishda maxsus o’yin materiallari bilan jihozlangan bo’lishi lozim. O’yinda o’ynaladigan har bir material, buyum yoki o’yinchoq o’zining tashqi ko’rinishiga ega bo’lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi kerak. Bunday materiallar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

O'yinning tuzilishi qanday? - maqsad mavjud, sabablar, amalga oshirish vositalari, rejali harakatlar, natija. O'yin bolalar hayotida shunday universal faoliyatdirki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida tafakkur qilish ham, san'at ham, xayol, hissiyot, dam olish va xushchaqchaqlik manbalarni ham mujassamlashgandir, ya'ni mana shu protsesslarning barchasi bolaning o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'yin bolalar talab qilayotgan darajadagi to'la qonli hayotni ta'min eta oladi. O'yinning bolalarni maftun etuvchi kuchi ham shundadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya'ni bolalarning o'yin faoliyatlari orqaligina hal qilinishi mumkin. Chunki,

birinchidan, bolalarning o'yin faoliyatlari qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Psixologik jihatdan olganda, bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) ham o'yindan kelib chiqadigan natijaga emas (o'yindan ko'pincha hech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki ayni shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir.

Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni ularni qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib (cho'pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib), kuchlari yetgancha erkin faoliyatda bo'la oladilar. Bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, hali o'zlarining kuchlari ham, aql-idroklari ham yetmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyati orqali o'zlashtiradilar. O'yin faoliyatlarining yana bir psixologik xususiyati shundan iboratki, o'yinda bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'ladi. Bolalar o'zlarining turli- tuman o'yinlarida faqat o'zlariga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shofyorlarning, militsionerlarning, tarbiyachilar hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. Albatta, turmush tajribalari hali juda oz bo'lgan va faoliyat doiralari juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. Masalan, oyisini, adasini, akasi yoki opasini, tarbiyachisini va shu

kabilarning harakatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta guruh bolalarining o'yinlarida bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

"To'g'ri - noto'g'ri" o'yini;

Pedagog turli to'g'ri va noto'g'ri iboralarni aytadi. Agar ibora to'g'ri bo'lsa, bolalar qarsak chalishadi, agar noto'g'ri bo'lsa, oyoqlari bilan tapillatishadi.

Masalan, "Qishda doim moychechak gullaydi" – bolalar tapillatishadi, "muz – bu muzlatilgan suv" – bolalar qarsak chaladilar, "tosh –bu suyuq modda"- bolalar tapillatishadi, "Yog'ochdan kemalar yasash mumkin"- bolalar qarsak chaladilar. "Tarvuz - dumaloq, shirin, qora urug'lari bor"- bolalar qarsak chaladilar, "Sabzi - yashil va qizil rangligi bor, xomligicha yeyish mumkin emas"- bolalar tapillatishadi. Bu o'yin orqali bola ham tinglaydi, fikrlaydi, to'g'ri va noto'g'ri farqlaydi, javob qaytaradi. Bir vaqtda diqqatini jamlashni o'rganadi. Hayotda har bir jonli va jonsiz narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini anglab yetadi.

"Biz qayerda edik – aytmaymiz, lekin nima qildik – ko'rsatamiz"

Pedagog bolalarga murojaat qilib, shunday deydi: "Bugun biz o'ynaymiz. Siz bir ishtirokchini tanlaysiz va u xonadan chiqib ketadi. Biz esa nima qilishni kelishib olamiz. Ishtirokchi qaytib kelganida, u shunday deb so'raydi: 'Qayerda edingiz? Nima qildingiz?' Biz unga javob beramiz: 'Biz qayerda edik – aytmaymiz, lekin nima qildik – ko'rsatamiz!' Ishtirokchini tanlashadi va u xonadan chiqadi.

Pedagog namuna ko'rsatadi, masalan, o'tin aralayotgan kabi harakat qiladi. "Men nima qilayapman?", deb bolalardan so'raydi. Bolalar: "O'tin aralayapsiz", deb javob berishadi. "Keling, hammamiz o'tin arralaymiz", deydi pedagog.

Keyin ishtirokchini taklif qilishadi, u esa: "Qayerda edingiz? Nima qildingiz?", deb so'raydi. Bolalar birgalikda javob berishadi: "Biz qayerda edik – aytmaymiz, lekin nima qildik – ko'rsatamiz!" Bolalar va pedagog o'tin arralashni harakatlar yordamida tasvirlashadi, u: "Siz o'tin aralayapsiz", deb topadi. O'yinni davom ettirish uchun boshqa ishtirokchi tanlanadi. Yangi ishtirokchi xonadan chiqib ketganda, pedagog bolalarga ko'rsatiladigan harakatlarni (yuvinish, raqsga tushish, chizish, pianino chalish...) o'ylab topishlarini taklif qiladi. (Pedagog nutqda fe'llarning to'g'ri ishlatilishini nazorat qiladi, jamoada ahil bo'lib ishlash, hatti-

harakatlardan tushunish, imitatsion ish-harakat mazmunini toppish va xulsa qilishga o'rgatadi).

Demak, taxlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlantiruvchi o'yin muhitida bolalarning o'yin faoliyatini tashkil etishda pedagog quyidagilarni e'toborga olishi kerak:

-Bolalarga aniq o'yin harakatlarini o'rgatish tavsiya etilmaydi; bolalar o'zlari o'yinga qanday o'yin harakatlarini kiritishni o'ylab topishlari muhim, faqat shunda o'yin haqiqatan ham ijodiy bo'la oladi.

-Rolli harakatlar ifodali bo'lishi kerak, bu esa xarakterli amallar, imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali ta'minlanadi. Masalan, ona rolida bir qiz onaning muloyim, quvnoq ekanligini, boshqa qiz esa shu rolda onani xo'mraygan, qat'iqqol ekanligini ko'rsatadi. Bunda ikkalasi ham yoqimli rolni o'ynaydi, ammo ularning ifoda vositalari turlicha bo'ladi.

Bolalar bilan rivojlantiruvchi o'yin muhitida ishlashda pedagogning asosiy vazifasi har bir bolaga intellektual va shaxsiy sifatlarni oshirilishi mumkin bo'lgan vazifalarni qo'yishga yordam berish, ularni hal qilish usullarini o'zlashtirish va uning faoliyati natijalariga erishishga yordam berish bo'lib ular quyidagilar;

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual aqliy qobiliyatlarini shakllantirish (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, analogiya), o'z harakatlarini boshqarish va rejalashtirish usullari.
2. Bolalarda o'zgaruvchan fikrlash, tasavvur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'z bayonotlarida bahslasha olish, eng oddiy xulosalar chiqarishni mashq qilish.
3. Bolalarning ixtiyoriy sa'y-harakatlarini maqsadli boshqarish, tengdoshlar va kattalar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish, o'zini boshqalarning ko'zi bilan ko'rish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlarni tanlash, kvest sarguzashtli, topqirlikka oid usullarni qo'llash.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan rivojlantiruvchi o'yin muhitida o'yinlar xotira, tasavvur va qo'llarning mayda motoriikasini yaxshilashga olib keladi. O'yinlar tufayli bolada kelajakda o'zi uchun foydali bo'ladigan ko'nikma va malakalar mavjud bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan o'yinlar tarbiyaning juda ajoyib usuli hisoblanadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar yangi narsalarga

qiziqadilar. Shuning uchun pedagog ota-onalarga bolaning kelajakda maktabda yaxshi o'rganishiga yordam beradigan "aqlli" o'yinchoqlar va ta'limiy o'yinlarga e'tibor berishni maslahat berishi mumkin. O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlarning intellektual ahamiyati shundaki, bola tayyor bilimlarni olmasdan, mustaqil ravishda izlanadi. Insonning ruhiy jarayonlari va qobiliyatlari, jumladan, muloqot qobiliyatlari ham shunday shakllanadi. O'yinlar bolalarning yoshini hisobga olishi kerak. Kichik maktabgacha yoshdagi bolaga predmetlarni ushlash, xususiyatlarini bilish mumkin bo'lgan o'yinlar ko'proq mos kelsa, katta maktabgacha yoshdagi bola raqamli texnologilar, kompyuter o'yinlarini o'rganishga ko'proq qiziqishi ortadi.

XULOSA

Rivojlantiruvchi o'yin muhiti maktabgacha yoshdagi bolalarning erta rivojlanishida ahamiyati beqiyos bo'lib, quyidagi natijalarni namoyon qiladi:

- Kognitiv. Bu bolaning atrofdagi dunyoni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, kognitiv faoliyatni rag'batlantiradi.
- Kommunikativ. Bu nutq rivojlanishini rag'batlantiradi, bolaga muloqot va o'zaro ta'sir asoslarini o'rganishga imkon beradi.
- Sog'lomlashtirish. Bu harakat faoliyatini rag'batlantiradi, harakat tajribasini boyitadi va jismoniy rivojlanish hamda sog'lom turmush madaniyati bilan tanishtiradi.
- Ijodiy. U bolalarni ijodiy faoliyat bilan tanishtiradi, o'z-o'zini rivojlantirishga va o'zini anglashga yordam beradi, muammolarni hal qilish, yangi g'oya, yechimlar topish malakasini mustahkamlaydi.

To'g'ri tashkil etilgan rivojlantiruvchi o'yin muhiti kattalar uchun bolaning uyg'un rivojlanishiga, guruhda hissiy ijobiy muhit yaratishga, o'yin-tadbirlarni uyushtirish va o'tkazishga yordam beradi va shu bilan bolalarni mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Rivojlantiruvchi o'yin muhitining tashkil etilishi, bolalarning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning maktabga tayyorlanishi va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun, ta'lim tashkilotlarida o'yin muhitini shakllantirish, bolalarning erta rivojlanishini ta'minlashda eng muhim omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Росс Кэмпбелл . «Как по-настоящему любить своего ребенка». 1977-год.
2. (Brown, 2009; Copple and Bredekamp, 2009; Elkind, 2003; Hirsh-Pasek, Golinkoff, Berk and Singer, 2009).
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasi qabul qilgan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” 1989-yil 20-noyabr
- 4.«Предметно-развивающая среда как условие развития игровой деятельности детей старшего дошкольного возраста» (методическое пособие для ДОО). /Левина В.С., / - Краснодар: 2023. - 70 с.
- 5.”Ilk qadam” O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ toshkent-2022
- 6.Артамонова, О. Предметно-пространственная среда: ее роль в развитии личности /О.Артамонова// Дошкольное воспитание. - 1995. - №4.
- 7.Новоселова, С.Л. Развивающая предметно-игровая среда / С.Л.Новоселова // Дошкольное воспитание. - 2005. - №4.
- 8.Гринявичене, Н.Т. Игра и новый подход к организации предметно-игровой среды [Текст] / Творчество и педагогика (материалы Всесоюзной научно-практической конференции)/ Н.Т. Гринявичене.—Москва: Просвещение, 2016. — 311 с.